

MALAYZIYA TA'LIM TIZIMI

Abdumo'minova Sevinch Alisher qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiyas :Ushbu maqolada Malayziya ta'lim tiziming shakillanishi , tuzulishi va rivojlanishi strategiyalari tahlil qilinadi . Unda mamlakatning maktabgacha , umumiy o'rta , texnik -kasbiy va oliy ta'lim bosqichlari bo'yicha qo'llanilayotgan davlat siyosati , o'quv dasturlarining modernizatsiya jarayonlari hamda raqamli ta'limni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar keng yoritilgan . Ta'lim sifatini oshrishga qaratilgan milliy dasturlar , raqamli ta'limni joriy etish jarayonlari hamda ko'p millatli jamyat sharoitida ta'lim samaradorligini tahlil qiladi

Kalit so'zlar : Malayziya ta'lim tizimi , ta'lim islohatlari , raqamli ta'lim o'quv dasturlari, xalqaro tajriba .

Kirish: Malayziya ta'lim vazirligi [KPM] tomonidan nazorat qilinadi . Malayziya maktablari ,xususiy maktablar yoki mustaqil ravishda ta'lim olish mumkin . Ta'lim tizimi asosan boshlang'ich va o'rta maktablarga qaratilgan . Shtat hukumati o'quv rejasi va boshlang'inch va o'rta maktab ta'limning boshqa jihatlari bo'yicha hech qanday vakolatga ega emas , ular o'rniga vazirlik tomonidan belgilanadi . Malayziya ta'lim tizimi davlat inson kapitalini rivojlantirish hamda milliy strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi . Bu maqolada boshqa tadqiqotchilarning fikirlari ham keltirilgan . Malayziyadagi oliy ta'lim tizimi juda ko'p ko'zga ko'rinidgan bo'lib , uning yillar davomida rivojlanishni aks ettiradi. U davlat va xususiy oliy o'quv yurtlarni o'z ichiga oladi va so'ngi yillarda xususiy investitsiyalarni qattiq qo'llab – quvatlashi tufayli xususiy institutlarning sezilarli rivojlanishi kuzatilmoqda.

Asosiy qisim : O'zbekiston va Malayziya oliy ta'lim muassalari o'rtasida 94 ta bitim , shartnoma va kelishuv amal qilmoqda . Mazkur hamkorlik doirasida 195 nafar o'zbekistonlik professor – o'qituvchi Malayziya oliy ta'lim tashkilotlariga malaka oshirdi . O'z navbatida , 230 nafar malayziyalik o'qituvchlar O'zbekiston universitetlaridagi o'quv jarayoniga jalb etildi. Ta'lim forum doirasida o'tkazilgan madaniy dastur ikki xalq

o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamladi .Malayziya ta'lim tizimi Janubi – Sharqiy Osiyodagi eng samarali va tez rivojlanayotgan ta'lim modellardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim Malayziyada 4-6 yoshli bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari keng rivojlangan bo'lib , davlat va xususiy sektor tomonidan boshqariladi. Ushbu bosqichda asosiy e'tbor bolalarda kommunikativ ko'nikmalar , savodxonlikning boshlang'ich asoslari va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga qaratiladi boshlang'ich ta'lim 6 yil , o'rta ta'lim esa 5 yil davom etadi . O'quv dasturlari Malayziya , ingliz fan va texnologiyaga alohida urg'u berilgan holda ishlab chiqiladi o'rta maktabni tugatgan o'quvchilAR milliy imtihon topshiradi va keying ta'lim bosqichiga yo'naltiriladi .Malayziya iqtisodiy rivojlanishini qo'lab – quvvatlash maqsadida texnik va kasbiy ta'limni kuchli rivojlantirmoqda .TVET muassasalarida sanoat ehtiyojlari asosida ishchi kadrlar tayyorlaydi va zamonaviy laboratoriya hamda ishlab chiqarish bazalariga ega .Oliy ta'lim tizimi universitetlar , kollejlilar va institutlardan iborat .O'quv jarayonida ilmiy tadqiqotlar , innavatsion texnologiyalar va xalqaro dasturlar muhim o'rin tutadi .Malayziya oxirgi yillarda xalqaro talabalar uchun jozibador ta'lim markaziga aylangan .Malayziya zamonaviy ta'lim talablariga moslashish maqsadida qator islohatlarni amalga oshirgan .Eng muhimlaridan biri – Ta'lim rejalashtirish dasturi [Education Blueprint] bo'lib , u 2013 – 2025 yillarga mo'ljallangan . Dastur ta'lim sifatini oshirish , o'qituvchilar malakasini kuchaytirish , STEM yo'nalishlarini rivojlantirish va raqamli raqamli o'qitishning keng joriy etishni nazarda tutadi .Malayziyada raqamli o'qitish platformalari , elektron darsliklar , masofaviy o'quv tizimlar jadal joriy etilgan . Maktablarda “aqli sinflar “ [smart classroom] tashkil etilib , o'quvchilar uchun internetga asoslagan interaktiv resuslar yaratilgan . Bu o'quv jarayonini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtiradi hamda o'quvchilarda kreativ fikirlash va axborot savodxonligini rivojlantiradi . Malayziya ta'lim bo'yicha ollomlar tadqiqot xulosalar , Salleh Molly ,N.N.Lee va Ambigapaty Pandian Malayziya madaniy jihatdan ko'p millatli bo'lgani uchun ko'p tillilik siyosati ta'limda muhim o'rin tutadi .S.Kanageswari Suppiah, STEM talabalarda kreativ fikirlash shakillantirish gender va ta'lim samaradorligin o'rgangan

Xulosa

Malayziya ta'lim tizimi o'rganish shuni ko'rsatadiki , mamlakat o'zining ko'p millatli va ko'p tili jamiyati sharoitda modernizatsiya qilish , raqamlashtirish va sifatni oshrish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda . Tadqiqotchlar Mohamad Johid Salleh , Molly ,N.N.Lee, Rosnani Hashim Ambigapathy Pandaian va boshqalar – Malayziya ta'limi barqaror rivojlanishi o'qituvchilar professionalligini oshrish , raqamli ta'limni keng joriy etish , tillararo integratsiyani shakillantirishga bog'liq ekanini takidlayd .Umuman olganda , Malayziya tajribasi bugungi kunda ta'limni modernizatsiya qilayotgan ko'plab davlatlar uchun amaliy jihatdan ahamiyatli model , bo'lib undagi islohatlar ilmiy izlanishlar bilan mustahkamlangan va kelajakda ham samarali natija berishi kutib qolamiz .

Foydalangan adabiyotlar :

- 1 . Hashim , R [2004] .Educational Dualism in Malaysia : Implications for theory and Practice.Oxford University of Malaya Press.
- 2 Ministry of Education Malaysia . [2013] Malaysia Education Blueprint 2013-2025. Putrajaya: MOE .
- 3 . To'xtayev , B [2020] .Kadrlar tayyorlash milliy dasturi . Toshkent : Oliy Majlisi.
- 4 . Ochilov ,A .O.[2018] .O'zbekiston ta'lim modernizatsiya qilishning nazariy asoslari . Toshkent : TDPU nashiryoti
- 5 . Mirzaev , U. M . [2016]. O'zbekistonda maktab ta'limni modernizatsiya qilish masalalari . Pedagogik va innavatsiya .
- 6 . <https://uz.wikipedia.org>